

№1(5)
2025



ÓZBEKISTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 1(5)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

XX ASRNING IKKINCHI YARIMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI

Abatbaeva R.A.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqaloq xalqining musiqa madaniyati XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji, kompozitorlarlarning faoliyati va turli janrlarning amaliyotta qo‘llanilishi haqqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari Z.Mizayev, T.Bayandiyev, T.Adambayeva, A.Mavrulov, Y.Ergasheva, Asen Alimov, (B.Ismailov, A.Karimov, A.Paxratdinov, T.Niyetullaev, K.Maqqsetov, I.Sagitov, T.Adambayeva, K.O‘tegenov, S.Levchenko, O.Xomyakova, N.Maksimova, A.Malikov, Q.Qurbanov singari qoraqlpoq adabiyoti va madaniyatining jankuyarlarining olib borgan tadqiqotlari amalga oshirgan ilmiy ishlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: cantata, konsert, syuita, kompozitor, teatr, dinamika, doira, xor, monografiya, orkestr, jirov, baxshi, doston, konservatoriya.

Аннотация: В данной статье говорится о развитии музыкальной культуры каракалакского народа во второй половине XX века, деятельности композиторов и практическом использовании различных жанров. Кроме того, З. Мизаев, Т. Баяндиев, Т. Адамбаева, А. Маврулов, Ю. Эргашева, Асен Алимов, (Б. Исмаилов, А. Каримов, А. Пахратдинов, Т. Ниетуллаев, К. Максетов, И. Сагитов, Т. Адамбаева, К. Отегенов, С. Левченко, О. Хомякова, Н. Максимова, А. Маликов, Приводятся сведения об исследованиях и научных работах, проводимых любителями караклпокской литературы и культуры, такими как К.Курбанов.

Ключевые слова: кантата, концерт, сюита, композитор, театр, динамика, доира, хор, монография, оркестр, жырау, бакши, дастан, консерватория.

Abstract: This article talks about the development of the musical culture of the Karakalak people in the second half of the 20th century, the activities of composers and the practical use of various genres. In addition, Z. Mizaev, T. Bayandiev, T. Adambaeva, A. Mavrulov, Y. Ergasheva, Asen Alimov, (B. Ismailov, A. Karimov, A. Pahratdinov, T. Nietullaev, K. Maksetov, I. Sagitov, T. Adambaeva, K. Otegenov, S. Levchenko, O. Khomyakova, N. Maksimova, A. Malikov, Information is provided about research and scientific work carried out by lovers of Karakalpok literature and culture, such as K. Kurbanov.

Keywords: cantata, concert, suite, composer, theater, dynamics, circle, choir, monograph, orchestra, jirov, bakshi, epic, conservatory.

Kirish: XX asr ikkinchi yarmida O‘zbekiston madaniyati tarixida sodir bo‘lgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlar, rivojlanish xususiyatlari, musiqaning paydo bo‘lishi va uning nazariyasi, teatr sohasi, shuningdek, tarixiy tafakkur dinamikasiga ta’sir ko‘rsatgan mafkuraviy hamda siyosiy masalalar Z.Mizayev, T.Bayandiyev, T.Adambayeva, A.Mavrulov, Y.Ergasheva kabi olimlarning asarlarida ochib berilgan.

XX asrning 2-yarmidagi Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyati merosini o‘rganish, “sotsialistik realizm” tushunchasining musiqa va umuman san’at holatiga ta’sirini ko‘rsatish; bu davrda Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyatining mashhur namoyandalari galeriyasini yaratib, ular merosining madaniyatni yanada rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holatiga ta’sirini, qoraqalpoq professional musiqasining poydevori N.Muxammeddinovning asarlarida tarixiy obrazlarning tutgan o‘rni, uning tahlili va turli janrlardagi asarlarini tarixshunoslikda madaniyat tarixi bo‘yicha mavjud bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi [7: 46].

Asosiy qism: 1950-1960–yillari qoraqalpoq musiqa madaniyati uchun o‘zgarish va yangiliklarga to‘la davrlar bo‘ldi. Qoraqalpoq musiqasida yirik janrlarning paydo bo‘lishi kompozitor J.Shamuratov bilan A.Xalimovning ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur janrlarning milliy musiqamizga ta’siri va o‘rganilishiga rus kompozitorlarining simfoniya, kantata va konsert asarlari namuna sifatida xizmat qilgan. Xususan, A.Xalimovning ijodi milliy musiqamizning tadqiqot ishlari va rivojlanish istiqbollari sifatida hozirgacha alohida e’tirof etiladi. A.Xalimovning boshqa kompozitorlardan farqli jihati u Qoraqalpog‘istonda o‘z ijodini katta janrlardan boshladi. Kompozitorning yuksak muvaffaqiyatlaridan biri – polifonik usul imkoniyatlarni xor asarlarida qo‘llovchi kompozitorlarning birinchilaridan edi. O‘sha davrdayoq 30 dan ortiq ko‘p ovozli xorlarning muallifi bo‘ldi. Ularning ichida 1956-yili S.Xo‘janiyazov she’riga yozilgan “Erkinlik ovozi” [4: 124] xori murakkab musiqasi xor janrining qoraqalpoq musiqashunosligi rivojidadagi noyob ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, kompozitorning musiqa san’atiga qo‘shgan katta hissadir. Uning bu asari dastlabki ko‘p ovozli qoraqalpoq xori bo‘lib unda milliy koloritni o‘zida jamlagan milliy qoraqalpoq qo‘shiq ijrochiligi usullarining qo‘shimchalari asosida yozilib, ikki davr musiqasini uyg‘unlashtira olgan. Mazkur asar solist, xor va orkestr uchun yozilgan. A.Xalimov xor asarlari bilan birga simfoniya janridagi ijodiy ishlari bilan ham katta hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan. Kompozitor A.Xalimov xalq kuylari bilan musiqalarini notalashtirib, jamlab to‘plam etib chiqarish masalasini o‘z tajribasida sinab ko‘radi. Lekin bu notalar baxshi, jirovlarga uchun mos emasdi. Uning kitobida musiqalari tovushda faqat melodiylarigina berilgan bo‘lib, ularning barchasi ham doirada ijro etishga to‘g‘ri kelavermagan. Doira sozlarining

ijro jarayonida ayrim vaqtlari uning ba'zi dastalari, qochirmalari bir-biriga o'xshab ketadi [8: 340]. Vaqtning o'tishi bilan ular sozandaning yodidan chiqib ketish xavfi ham vujudga keladi. Shunga qarab boshqa musiqa unsurlarida xato yuzaga kelishi mumkin. Bu xatto-kamchiliklar xalqning milliy musiqasini o'rganishdagi xatoliklarga yo'l ochib, hattoki katta konsertlarda ham ko'zga tashlanib turgan. O'sha davrda musiqashunoslar uchun ishlab chiqilgan qo'llanmalarining hammasi ham ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarga, talabalarga musiqa darslarining barcha turlarini nota orqali o'tadigan bo'lsa hamki faqat qoraqalpoq milliy musiqasi uzoq yillar og'zaki usul bilan o'rgatilgan. Maktablarda aniq turdagi davlat standartga asoslangan barqaror o'quv darsligi bo'lmaganligi sababli o'quvchilargagina emas, ustozlar ham katta tushunmovchiliklarga duch kelib, o'zlarining tushunchasi bo'yicha har qaysisi har xil turda o'qitgan [11: 136].

1956-yil 18-sentyabrda QQDPI Qoraqalpoq adabiyoti kefedrasi katta o'qituvchisi Q.Ayimbetov Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasida "Alpomish" dostoni va folklor masalalari bo'yicha ilmiy kengashda qatnashib kelgan [12: 56]. Institutning "Pedagogika" kefedrasi o'qituvchisi Asen Alimov Nizomiy nomidagi TashPU bilim yurtini tugatgan ilk pedagoglarning biri – A.Alimov "Qoraqalpoq xalq ertaklari" va "Qoraqalpoq liro-epik dostonlari" haqida monografiya yaratgan [12: 57].

1957-yili qoraqalpoq musiqasining rivojlanishida va tadqiq etilishida nihoyatda ahamiyatli masalalar qayta ko'rib chiqiladi. Chunki Toshkent shahrida qoraqalpoq madaniyat va adabiyot kunlari dekadasi o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. 1957-1966-yillari O'zbekiston kompozitorlari uyushmasining Qoraqalpog'iston bo'limining tashkil etilishi va qoraqalpoq xalq sozlari orkestrining tashkil etilishi madaniyat va san'atimiz tarixida ulkan iz qoldirgan. Orkestrning tashkil etilishida O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, taniqli kompozitor, dirijor, ustoz Abdreyim Sultanovning xizmatlari beqiyosdir. Shu bilan birga, 1959-yili O'zbekiston Fanlari akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali qoshida san'at tadqiqoti bo'limi ochilib, bu yerda olimlar tomonidan xalq musiqalari bilan birga kompozitorlarning asarlari yig'ilib ularni yozib olish va ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari olib borilgan. Qoraqalpoq musiqa madaniyatida musiqashunoslik ilmi rivojlanib, qoraqalpoq musiqa san'atining o'rganilish masalalari va tadqiqot jarayonlarini mutaxassislar, tanqidchilar va musiqashunoslar T.Adambayeva, K.O'tegenov, S.Levchenko, O.Xomyakova, N.Maksimova, A.Malikov, Q.Qurbanov, G.Kamalovalar o'z ilmiy ishlarida yozib qoldirgan.

1957-yili yoz oyida Berdaq shoirning nevarasi, "qiz baqshi" - Hurlimanning o'g'li Seytnazardan adabiyotchinos olim A.Karimov va A.Paxratdinovlar shajaralarini yozib olgan. Shu yili qoraqalpoq jirovlari: Shamurat jirov va Qiyas jirovdan filolog-olimlar (B.Ismailov, A.Karimov, A.Paxratdinov, T.Niyetullaev,

K.Maqqsetov, I.Sagittov) dostonlarning nusxalarini yozib oladi. 1958-yil 11-12-yanvarda XVI Qoraqalpoq oblast partiya konferentsiyasi bo‘lib, unda S.Kamalov mamlakatimizda Qoraqalpoq universitetini (hozirgi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti) ochish taklifini olib chiqadi [13: 161]. Institutda (hozirgi Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti) “Hurliman” ansambli tashkil qilindi. institutning “Xor kapella” guruhi Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Qoraqalpoq madaniyati va san’atining haftaligi”da qatnashgan va talabalar Toshkent Elektrotexnik aloqa institutida konsertlar qo‘ygan.

XX asrning 1956-1967-yillari qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishida komediya janri dramaturgiya bilan teatr san’atining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Lekin, J.Aytmuratova o‘zining tadqiqotida M.Seytniyazovanning “Vatan gadoi”, A.Allamuratovning “Qoraqalpoq musiqasi tarixi bir-ikki og‘iz so‘z”, G.Esemuratovning “Tuwg‘an jerge”, D.Aytmuratovning “Haywanlardin’ suwretke tusiwi” asarlari tanqid qilinganlini keltirgan [1: 10].

Ayniqsa, XX asrning 50-60–yillarida 30-40–yillarga qaraganda Qoraqalpog‘iston bastakorlari (melodistlari) o‘zlarining ijodiy yo‘lini topishga printsiptal ahamiyatga ega bo‘lgan davr bo‘ldi. Shu davrda keng ko‘lamli yangi ma‘nodagi professional musiqa shakllandi, yosh ijrochi bastakorlar ko‘paydi, ular musiqaning turli janrlarida ijod qilib, o‘zlarinig asarlari bilan xalqning e’tiboriga sazovar bo‘ldi. Toshkent, Olmaota, Sank-Peterburg, Ashxobod konservatoryalarida tahsil olib kelgan N.Muxammeddinov, G‘.Demesinov, S.Palvanov, G‘.Amaniyazov, D.Janabaeva, K.Abdullaevlar kelib qo‘shildi. Undan oldingi respublika madaniyati sohasining ilk darg‘alaridan: J.Shamuratov, A.Xalimov, ulardan keyin A.Sultanov, T.Adambayeva, X.Turdiqulov, A.G‘ayratdinovlar bastakorlar, musiqashunoslik va amaliy mahoratini samarali davom ettirib kelayotgan davr bo‘lgan. Mana shunday darg‘alardan so‘ng respublikamizda bastakorlik maktabi bir necha bo‘g‘inlarga bo‘linib ajoyib bastakorlar yetishib chiqdi.

Qoraqalpoq xalqi sharq davlatlarining orasida o‘zining betakror adabiyoti, musiqasi, musavvir chizgilari, raqs va ilm-fan madaniyatining boy ban‘analari bilan ajralib turadigan qadimiy xalqlardan biridir. U Qiranjala, Mizdaxkon, Janbosqala, Oqchxonaqala, Tuproqqa‘la, Kerdor va umuman janubiy Xorazmda paydo bo‘lgan “Avestodan boshlab, uch ming yillardan buyon bir qancha ming og‘zaki adabiyot turlari va musiqasini ko‘z qorachig‘iday avaylab asrab kelgan [2: 3].

Qoraqalpog‘iston madaniyati tarixini tadqiq qilishda XX asrning 60-70-yillarda tarixchi, filolog va san‘atshunos olimlar, xususan akademik S.Kamlov, t.f.d. U.Shalekeev, M.Nurmuxammedov tomonidan mahalliy madaniyatning rivojlanishida oktyabr inqilobining rus xalqi va kommunistik partiya xizmatini

ta'riflovchi dissertatsiya va monografiyalar yaratilgan. Ulardan akademik S.Kamalov ilmiy asarlarida Qoraqalpog'iston madaniyati ziyolilarning shakllanishida Sobiq Ittifoq tizimi yaratgan imkoniyatlari ta'kidlansa, akademik M.Nurmuxammedov tadqiqotlarida Qoraqalpog'iston fan madaniyat arboblarning shakllanishidagi rus madaniy aloqalari va rus ziyolilarining ta'siriga to'xtalib o'tgan. T.Ollanazarov tadqiqotida XX asrda qoraqalpoq dramaturgiyasining shakllanishi va rivojlanishi, teatr va dramaturgiyaning milliy rejissura taraqqiyotidagi rus teatr san'ati arboblarning xizmati ko'rsatilgan. T.Bayandiyev o'z tadqiqotlarida Qoraqalpog'istonda teatr san'ati tarixi va unda dastlabki milliy ziyolilar xizmatini yoritib, san'atshunos olimi T.Adambayeva qoraqalpoq musiqa olamining ildizi jirovchilik vakillari va XX asrdagi qoraqalpoq musiqa tarixi haqida keng ko'lamli monografiyalar yaratdi. Q.Abdireymov 1971–1973-yillarda SSSR xalq artisti A.A.Popov rahbarligida markazda malaka oshirishdan o'tadi. “Otello” roli Q.Abdireymovni “Qoraqalpoq Otello”si sifatida xalqqa tanitadi. Qoraqalpoq davlat teatri 50 dan ortiq spektakllarni sahnalashtirdi [6: 138]. U teatrdan ishlash bilan birga “O'zbekfilm”, “Qozoqfilm” studiyasida ishlab chiqarilgan 30 dan ortiq kinolarda takrorlanmas rollar ijro qiladi.

XX asrning 60–70-yillarida qoraqalpoq davlat teatri sahnasida o'zining ijro mahorati bilan ko'zga tushgan Dosbergen Ranov, Najimaddin Ansatbaev, Mambetbay Sadiqov va Rayxan Saparovalar yuqori baho bergan. Qoraqalpoq kompozitorlarining ko'p asarlari, ba'zi adiblarning to'plamlari o'zbek, qozoq, rus tillariga tarjima qilindi. O'z navbatida boshqa xalqlar adabiyot vakillarining saylanma asarlaridan qoraqalpoq tiliga o'girilgan tarjimalari nashr qilina boshladi. 1960–80-yillar qoraqalpoq dramaturgiyasida P.To'legenovning “Onalar”, “Ko'lanka”, “Inson taqdiri”, J.Aymurzaevning “Berdaq”, “Qadrdon doktor”, S.Xojaniyazovning “Suymegenge suykenbe”, “Ahmoq podsho”, T.Seytjanov, I.Yusupovlarning pyesalari (A.Shamuratov bilan birgalikdagi) muhim ahamiyat kasb etadi. Shu davrda liro-epik she'riyat mazmuni va mavzusi, uning janr jihatidan o'ziga xosligi rivojlandi va boyitildi. 1970–1980-yillar dramaturgiyada teatr sahnalarida qo'yilgan K.Raxmanovning (1942-2002) “U dunyoga taklif” tragikomediyasi, “Injiqning muhabbati” komediyasi, I.Yusupovning “Ajiniyoz” operasi librettosi yangi muhim hodisa sifatida tan olindi [7: 46]. X.Saparov, Sh.Dilmurotov va boshqalarning she'riy to'plamlari qoraqalpoq bolalar adabiyotiga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. 1970-90-yillarga kelib opera, oratoriya, simfoniya, sonata kabi yirik janrdagi asarlarning ilk tajribalari paydo bo'ldi “Ajiniyoz” operasi (1974), “Birinchi qoraqalpoq simfoniyasi” (1971), birinchi milliy baleti “Ayjamal” (1996), G.Demesinovning ikki simfoniyasi, fortepiano va orkestr uchun kontsertlari va b. A.Shamuratova, S.Mambetova, D.Qaipov va b. zamonaviy musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Respublikaning madaniy hayotida simfonik orkestr, katta xor jamoasi va balet truppasi faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek Berdaq nomidagi filarmoniya (1946), Qoraqalpoq teleradioqo'mitasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri, "Aydinlash" ashula va raqs ansambli, "Muxalles" dutochilar ansambli va boshqa musiqiy jamoalar faoliyat yuritmoqda. Qoraqalpog'iston ommaviy (estrada) musiqasi sohasida "O'ynasin" vokal ansambli, "Gulzar", "Saubet", "Miyras", "Jigitler" guruhlari tashkil qilingan. Z.Xojanazarova (1961-1992), R.Qutekeeva, M.Sapaeva, D.Mambetmuratov, G.Munteeva, M.Utemuratov kabi estrada xonandalari etishib chiqdi va bugungi kunda mashhur xonondalar hisoblanadi.

Yakuniy qism: Xulosa tariqasida XX asr ikkinchi yarmida O'zbekiston madaniyati tarixida sodir bo'lgan ijobiy va salbiy o'zgarishlar, rivojlanish xususiyatlari, musiqaning paydo bo'lishi va uning nazariyasini o'rganishda turli izlanishlar olib borilgan. Qoraqalpoq musiqasining rivojiga hissa qo'shgan san'atkorlarning mehnatlari haqida amaliyotlar olib borilgan, mana shunday ishlar bugungi kunda ham yosh olim va olimlarimiz tomonida ham izlanish tadqiqotlar olib borilmoqda bunda ko'pincha muammo to'g'ri radigan tomoni bu yozma nota materiallar va xalq kuylarining va kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlarning yozib olinmaganligi, albatta olib borilayotgan ishlarning uzoq muddatga vaqt talab qilinishiga olib keladi. Bugungi kunda xalq kuylarini turli variantlilik qilib O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali musiqashunlik mutaxassisligida ta'lim olayotgan talabalarimiz va xalq kuylarini notaga olish fani o'qituvchilari tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunda tashqari shu dargohda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar tomonidan damli cholg'u ijrochilarining repertuarini boyitish maqsadida har oy yangi asarlar yaratilib kelinmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Aytmuratova J. Avtoreferat, No'kis, 2022. – B. 9-10.
2. Alimov A., Adambaeva T. Ataqli sazgerler. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 2012. – 3-b.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Arxiv fondi/ 1; ofis 9. Delo 304. B 161-165.
4. To'remuratova A. Qoraqalpoq milliy musiqa san'ati tarixiga bir nazar va uning o'ziga xosligi // Oriental Art culture. scientific methodical journal 3/2 june. 2022. B.124.
5. Allambergenovna A. R. Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 138-144.

6. Allambergenovna A. R. Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 138-144.
7. Abatbaeva, R. (2023). KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DÓRETIWSHILIGINDE ERTEK JANRÍ (To'giz to'nqilda bir shi'kildek ertegi tiykarında). Вестник музыки и искусства, 1(2), 46–51.
8. Abatbaeva, R. (2023). BALLAD GENRE BY COMPOSER NAJIMADDIN MUHAMMEDDINOV. Modern Science and Research, 2(10), 340–343.
9. Abatbaeva, R. "International Scientific Journal Theoretical & Applied Science manifestation of european and national traditions in the karakalpak ethno-opera «gulayym» SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS http." T-Science. org 18 (2022).
10. Abatbaeva, Rano. "QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATIDA MUSIQALI DRAMA JANRINING SHAKLLANISHI." (2024).
11. Allanazarov D. Qaraqalpaq xalıq sazları. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 2002. – 136 b.
12. No'kis ma'mleketlik pedagogikaliq instituti (hujjetler ha'm jilnamalar). – No'kis: Qaraqalpaqstan, 2004. – B. 56.
13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Arxiv fondi/ 1; ofis 9. Delo 304. B 161-165.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Ходжаметова Г.И. КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	Charshemov J. P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	Мухаммедниязов К.Т. ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	Abatbaeva R.O. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	Саидхонов А.С. ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А. МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРИСТИКА	42
7	Saburova U.M. LYUDVIG BETHOVEN IJODIDA VARIATION SHAKL	48

KÓRKEM ÓNER

8	Allanbaev R.O. QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	Abdullaev F., Muratbaev A. QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŇ DÚZILIWI HÁM ONIŇ RAWAJLANIŇW BASQIŠHLARI	59
10	Qurbanazarov P. DAMLI CHOLG‘ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	Shermatov K.E. BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	Abdullaeva U., Razatdinova A. KOMPOZITOR KEŇESBAY ABDULLAEVTIŇ QARAQALPAQ XALIŇ NAMALARINIŇ RAWAJLANIŇWIŇA QOSQAN ÚLESI	80
13	Александрова О.А. ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	Allaniyazov B. SKRIPKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	Erejepov A.A. QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŇ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERI HAQQINDA	98

16	Kamalova G.M. HIKMAT RAJABOVTIŇ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERI	104
17	Dosimbetov B.X. CHOLG‘U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOIYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	Zuxurov M.M. DIRIJYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŇ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	Embergenova G.A., Yo‘ldoshev L.E. XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	Paxratdinova L.Sh. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	Karimova I.I. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍĠARMA JAZĠAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	Rejepov Sh.B. ĠAYÍP DEMESINOVTIŇ FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI (“Prelyudiya”lari misalında)	153
23	Mamutov P.A. TEATRDÍŇ TARIYXÍY QÁLIPLESIW HÁM DRAMATURGIYANIŇ RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	Umarova V.A. MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	Tnibaev P.K. DAMLI CHOLG‘ULARNI TALABALARGA O‘RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	Элмуродова Г.А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНИ)	173
27	Iseev R. FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍĠINDA POLIFONIYA JANRINIŇ AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍĠARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I. MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	Marziyaev J.K. JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍŇDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	Kalimbetova S.A. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI (“Padarkush” va “To‘y” dramalari misolida)	201

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal